

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 17-sentabr kuni Turkmanistonga tashrif buyuradi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Prezident Gurbanguli Berdimuhamedovning taklifiga binoan 2017-yil 17-sentabr kuni Turkmanistonga tashrif buyuradi hamda Ashxobod shahrida o'tkaziladigan Yopiq inshootlarda va jang san'atlari bo'yicha V Osiyo o'yinlarining ochilish marosimida ishtirok etadi.

Tashrif doirasida Prezidentimiz qator davlatlar rahbarlari bilan ikki tomonlama uchrashuvlar ham [o'tkazadi](#).